

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2023-yil "23" maydagi "22"-son
buyrug'iga
ILOVA

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish bo'yicha QO'LLANMA

Ushbu Qo'llanma O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 539-son qarori bilan tasdiqlangan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi nizomga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (keyingi o'rinlarda – Statistika agentligi) va uning hududiy organlari tomonidan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini (keyingi o'rinlarda – KTYADR) yuritish tartibini belgilaydi hamda statistika organlari xodimlariga o'z ish jarayonida foydalanishlari uchun ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalar ishlatiladi:

KTYADR – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim;

yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiya qilishni avtomatlashtirilgan axborot tizimi "Reg-System" (keyingi o'rinlarda – Tizim) – yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olish, to'plash, yangilash, saqlash, nazorat qilish, tahlil qilish va belgilangan tartibda taqdim etish jarayonlarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan axborot tizimi;

IFUT – iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

registrator – ro'yxatdan o'tkazuvchi organning mas'ul xodimi;

yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot;

bildirishnoma – yuridik shaxslarning yagona davlat reyestrtdagi yuridik shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarning elektron shakli bo'lib, u orqali KTYADRda yuridik shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar yoki undagi o'zgarishlarni kiritish amalga oshiriladi;

foydalanuvchilar – KTYADRdagi axborotdan manfaatdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

2-bob. KTYADRni yuritishni tashkil etish

2. KTYADR Statistika agentligi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi hududiy organlari tomonidan yuritiladi.

3. Statistika agentligi quyidagilarni ta'minlaydi:

KTYADRni rivojlantirishning metodologik asoslari va yo'nalishlarini ishlab chiqish;

KTYADR ma'lumotlari elektron bazasini ishlatish va boshqarish hamda ushbu bazani yuritishda qatnashuvchi organlar tomonidan undan belgilangan tartibda foydalanish;

yuridik shaxslarni hisobga qo'yish va ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha ishlarga metodik rahbarlik qilish va ularni muvofiqlashtirish;

statistika tasniflagichlari tizimini yuritish;

KTYADRning zaxira nusxalarini saqlash va axborot xavfsizligini ta'minlash;

davlat organlari bilan idoralararo axborot almashish;

KTYADRdan foydalanuvchilarga qonunchilikda belgilangan tartibda axborot-ma'lumotnoma xizmati ko'rsatish.

4. Hududiy statistika organlari quyidagilarni ta'minlaydi:

ro'yxatdan o'tkazuvchi organlardan tushadigan KTYADR ma'lumotlarini qayta ishlash hamda axborotlarning yo'qolishi, buzilishi va soxtalashtirilishiga yo'l qo'ymaslik;

KTYADRdagi tasniflash ko'rsatkichlarini statistika kuzatuvlari o'tkazish jarayonida olingan dastlabki statistika ma'lumotlari asosida o'z vaqtida o'zgartirish;

tegishli hududdagi davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar, soliq organlari va davlat mulkini boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish;

KTYADRdan foydalanuvchilarga qonunchilikda belgilangan tartibda axborot-ma'lumotnoma xizmati ko'rsatish.

5. KTYADR milliy statistika tizimida qo'llanadigan dasturiy-texnologik vositalardan foydalangan holda elektron shaklda yuritiladi.

6. KTYADR ma'lumotlari yo'qolishining oldini olish maqsadida har oyda elektron manbalarda oyning 1-kunidagi holatiga ko'ra, uning zaxira nusxasi shakllantiriladi, uning yo'qolishini bartaraf etadigan joylarda asl nusxasi bilan birgalikda saqlanadi.

7. Tizimga kirish huquqini olish yoki bekor qilish quyidagi tartibda rasmiylashtiriladi.

Statistika agentligining xodimlari uchun Tizimga kirish huquqini olish yoki bekor qilish, ushbu xodimlar boshliqlarining bildirishnomalari asosida Tizim administratori tomonidan rasmiylashtiriladi.

Hududiy statistika organlari tomonidan KTYADRni yuritish bo'yicha mas'ul xodimlarga Tizimga kirish huquqini olish uchun, mazkur Qo'llanmaning ilovasida ko'rsatilgan shakl bo'yicha, elektron ko'rinishda Statistika agentligiga so'rovnoma yuboriladi.

Statistika agentligi, bir kun muddatda, yuborilgan so'rovnoma asosida statistika organining KTYADRni yuritish bo'yicha mas'ul xodimi (keyingi o'rinlarda – Mas'ul xodim) uchun Tizimga kirish huquqi berilishini ta'minlaydi va bu haqida so'rovnoma yuborgan statistika organini xabardor qiladi.

Agar mas'ul xodim lavozimidan ozod etilsa yoki boshqa ishga o'tsa, hududiy statistika organi bir kun muddatda, ushbu mas'ul xodimning Tizimga kirish huquqini bekor qilishni ta'minlash maqsadida, mazkur Qo'llanmaning ilovasida ko'rsatilgan shakl bo'yicha, elektron ko'rinishda Statistika agentligiga so'rovnoma yuboradi.

Statistika agentligi tegishli so'rovnomani olgandan keyin, bir kun mobaynida Tizimga kirish huquqini bekor qilish bo'yicha tegishli harakatlarni amalga oshiradi.

8. Statistika organlarining mas'ul xodimlari o'zlariga ma'lum bo'lgan login va parolni uchinchi shaxslarga oshkor qilmasliklari shart.

9. Mas'ul xodim o'ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, o'zining avtomatlashtirilgan ish joyida Tizimdan foydalanish huquqi orqali, bildirishnomani ko'rish, tahrir qilish, tekshirish, kamchiliklari mavjud bo'lganda registratorga qaytarish, qabul qilish kabi ishlarni amalga oshiradi, u Tizimdan foydalanish huquqi doirasida KTYADRdan belgilangan shakldagi jadval va ro'yxat ko'rinishidagi ma'lumotlarni olish vakolatiga ega bo'ladi.

3-bob. KTYADRni yuritish va unga yozuvlarni kiritish

10. KTYADRni yuritish uchun:

ro'yxatdan o'tkazuvchi organlardan tushadigan ma'lumotlardan;
statistika kuzatuvlarini amalga oshirishda olingan statistika ma'lumotlaridan;
soliq va boshqa davlat organlarining registrlaridan hamda ma'lumotlar
axborot bazalaridan foydalaniladi.

11. KTYADRga registrator tomonidan yuborilgan bildirishnomada:

yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi
ma'lumotlar;

yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar
kiritilganligi, qayta tashkil etish, tugatish jarayonidaligi, tugatish jarayonining
to'xtatilganligi, tugatilishi va pochta manzili o'zgarganligi, shuningdek, moliya-
xo'jalik faoliyati amalga oshirilmayotganligi yoki harakatsiz holatga
o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

yuridik shaxs yangi tashkil etilgan vaqtda asosiy faoliyat turi kodini
biriktirishda yoki xodimlar soni to'g'risidagi ma'lumotni to'ldirishda noaniqlikka
yo'l qo'yilgan deb hisoblanganda, faoliyat ko'rsatmayotganda, qo'shib olish yo'li
bilan qayta tashkil etilganda, belgilangan tartibda faoliyati tiklanganda, qayta
ro'yxatdan o'tib, ta'sis hujjatlarida ushbu faoliyat turi asosiy faoliyat turi deb
belgilanganda, shuningdek ma'lum faoliyatni amalga oshirish bo'yicha litsenziya
olganda yoki litsenziyasi bekor qilinganda uning asosiy faoliyat turi va unda
ishlayotganlarning o'rtacha yillik soni o'zgarganligi to'g'risidagi ma'lumotlar
kiritiladi.

12. Ushbu ma'lumotlarni taqdim etilishi, Davlat statistika qo'mitasining
2014-yil 30-maydagi 3-mb-son qarori (Adliya vazirligi tomonidan 2014-yil
12-iyunda 2594-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) bilan tasdiqlangan
Yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiya qilishni avtomatlashtirilgan
axborot tizimi "Reg-System"da ishlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma (keyingi
o'rinlarda – Yo'riqnoma) asosida amalga oshiriladi.

Unga asosan, registrator Tizim orqali yuridik shaxsga "Yangi" statusdagi
bildirishnoma yaratishi va uning barcha satrlarini tegishli ma'lumotnomalar
asosida lotin alifbosidan foydalangan holda kiritishi hamda statistika
klassifikatorlari yordamida kodlarni biriktirishi lozim.

Registrator to'ldirilgan bildirishnomadagi ma'lumotlar va statistik kodlarni
to'g'riligiga ishonch hosil qilganidan so'ng, bildirishnomani "Tayyorlangan"
statusiga o'tkazadi.

Mas'ul xodim Tizim orqali o'ziga biriktirilgan hudud registratori tomonidan bildirishnomani "Tayyorlangan" statusiga o'tkazilgan vaqtdan boshlab, bir ish kuni ichida bildirishnomadagi ma'lumotlar va biriktirilgan statistika kodlarini tekshiradi.

Agar nomuvofiqliklar mavjud bo'lsa, unga aniqlik kiritish bo'yicha tegishli izohni kiritib, bildirishnomani "Yangi" statusiga qaytaradi. Registrator qaytarilgan bildirishnomadagi nomuvofiqliklarga 8 ish soatida aniqlik kiritib, bildirishnomani qaytadan "Tayyorlangan" statusiga o'tkazilishini ta'minlaydi.

Mas'ul xodim har bir yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilish vaqtida uning muassislari tarkibidan kelib chiqqan holda, Davlat va xo'jalik boshqaruv idoralarini belgilash tizimi idoraviy statistik ma'lumotnomasi asosida yuridik shaxsga tegishli DBIBT kodini biriktiradi.

Mas'ul xodim nomuvofiqliklar mavjud bo'lmagan yoki bartaraf etilgan bildirishnomani "Tekshirilgan" statusga o'tkazadi.

Mas'ul xodim bildirishnoma "Tekshirilgan" statusga kelib tushgandan so'ng uni tekshirib, xatoliklar mavjud bo'lmasa "Qabul qilindi" statusiga o'tkazilishini ta'minlaydi.

"Qabul qilindi" statusiga o'tkazilgan bildirishnoma KTYADRga kiritilgan hisoblanadi.

Tizim orqali bildirishnomadagi o'zgarishlar va statuslar tarixini ko'rish imkoniyati yaratilgan. Bunda bildirishnomani kim tomonidan yaratilganligi, unga qachon va qanday o'zgartirishlar kiritilganligi kabi ma'lumotlarni ko'rish mumkin.

13. Mas'ul xodim asosiy e'tiborini, bildirishnomadagi ma'lumotlar quyidagi talablar asosida to'ldirilishiga qaratishi shart:

bildirishnomadagi yozuvlar lotin alifbosidan foydalanilgan holda yozilishiga;
yuridik shaxsning to'liq nomi satrida firma nomi qo'shtirnoq ichida bosh harflarda, tashkiliy-huquqiy shakli esa kichik harflarda yozilishiga;

yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi satrida firma nomi qo'shtirnoq ichida bosh harflarda, tashkiliy-huquqiy shakli esa qisqartirilgan ko'rinishda bosh harflarda yozilishiga;

pochta manzili -- ko'cha nomlarini to'liq yozilishiga;

telefon raqamini kiritishda telefon raqamlari tegishli prefikslar (kodlar) bilan yozilishiga;

yuridik shaxsga amaldagi statistika klassifikatorlari va ma'lumotnomalar asosida kodlarni to'g'ri berilishiga;

muassislar to'g'risidagi ma'lumotlarning, agar muassis jismoniy shaxs bo'lsa, uning familiyasi, ismi va otasining ismi to'liq yozilishiga;

muassislarning ustav jamg'armasidagi ulushi miqdori ketma-ketligi bo'yicha joylashtirilishiga (bunda yuridik shaxslarning ta'sischilari to'g'risidagi ma'lumotlar faqatgina eng yuqori ulushga ega 5 ta ta'sischilar haqidagi ma'lumotlar hamda 5 tadan ko'p ta'sischisi bo'lgan yuridik shaxslarda beshinchi satrda qolgan ta'sischilarning yig'indisi aks ettiriladi);

ustav jamg'armasi miqdori va uning birliklarini to'g'ri to'ldirilishiga;

14. Statistika kuzatuvlarini amalga oshirishda olingan statistika ma'lumotlari asosida KTYADRga yozuvlar quyidagi tartibda kiritiladi.

a) Yillik statistika hisoboti asosida yuridik shaxsning asosiy faoliyat turi va unda ishlayotganlarning o'rtacha yillik soni o'zgarganda;

KTYADR ma'lumotlar bazasida IFUT kodlari va ularga mutanosib yillik o'rtacha xodimlar soni bo'yicha o'zgartirishlar Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turi va yillik o'rtacha ishchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlarni yangilash reglamentiga asosan amalga oshiriladi.

Bunda nodavlat notijorat tashkilotlarning asosiy faoliyat turi kodi ularning nizomi asosida Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasining xulosasiga muvofiq belgilanadi. Dehqon va fermer xo'jaliklarining asosiy faoliyat turi kodi qishloq xo'jaligidagi ixtisoslashuviga qarab belgilanadi.

b) Yuridik shaxs yangi tashkil etilgan vaqtda asosiy faoliyat turi kodini biriktirishda yoki xodimlar soni to'g'risidagi ma'lumotni to'ldirishda noaniqlikka yo'l qo'yilgan deb hisoblanganda, faoliyat ko'rsatmayotganda, qo'shib olish yo'li bilan qayta tashkil etilganda, belgilangan tartibda faoliyati tiklanganda, qayta ro'yxatdan o'tib, ta'sis hujjatlarida ushbu faoliyat turi asosiy faoliyat turi deb belgilanganda, shuningdek, ma'lum faoliyatni amalga oshirish bo'yicha litsenziya olganda yoki litsenziyasi bekor qilingan hollarda, yuridik shaxslar va (yoki) ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarning murojaatlari asosida asosiy faoliyat turi va unda ishlayotganlarning o'rtacha yillik soni o'zgartirishga yo'l qo'yiladi.

15. Yuridik shaxsning idoraviy mansubligi o'zgarganda – uning muassislari hamda davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalaridan tushgan ma'lumotlari asosida KTYADRga tegishli yozuvlar kiritiladi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining DBIBT kodi tarkibidan chiqarilayotgan yuridik shaxslar to'g'risidagi yozuvlarni KTYADRga kiritish mazkur davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining Statistika agentligiga yuborgan rasmiy murojaati asosida amalga oshiriladi.

Statistika agentligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqish natijasida: agar ma'lumotlar to'liq bo'lsa, KTYADRga tegishli o'zgartirish

kiritishni amalga oshiradi, aks holda davlat va xo'jalik boshqaruvi organiga ma'lumotlarning yetarli emasligi va ushbu ma'lumotlar to'liq taqdim etilganidan so'ng, KTYADRga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi to'g'risida rasmiy javob xati yuboriladi.

Yuridik shaxsning idoraviy mansubligi bo'yicha Statistika dasturiga muvofiq, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan birgalikda ularning tarkibiga kiruvchi yuridik shaxslar bo'yicha ma'lumotlarni solishtirish ishlari amalga oshiriladi.

Solishtirish natijasida tafovutlar bo'yicha quyidagi ro'yxatlar shakllantiriladi:

KTYADRda mazkur davlat va xo'jalik boshqaruvi organi DBIBT kodi bilan hisobga olingan, ammo davlat va xo'jalik boshqaruvi organi tomonidan taqdim etilgan tarkibda mavjud bo'lmagan yuridik shaxslar ro'yxati;

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organi tomonidan taqdim etilgan tarkibda mavjud bo'lgan, ammo KTYADRda mazkur davlat va xo'jalik boshqaruvi organi DBIBT kodi bilan hisobga olinmagan yuridik shaxslar ro'yxati.

KTYADRga ushbu aniqlangan tafovutlar bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organi tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida o'zgartirishlar kiritiladi.

Yangi yoki qayta tashkil qilingan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga DBIBT kodini biriktirish Statistika agentligining tegishli buyrug'iga muvofiq, Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan bildirishnomaga asosan amalga oshiriladi.

16. Statistik birliklar ro'yxatini shakllantirishda Soliq qo'mitasi, Adliya vazirligi va Statistika agentligi bilan uch tomonlama tasdiqlangan "Yuridik shaxslarnig faollik holati klassifikatori"dan foydalaniladi.

KTYADR bazasidagi korxonalar va tashkilotlar faollik holati to'g'risidagi ma'lumotlar soliq va ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar ma'lumot bazalari bilan integrallashgan tizim orqali real vaqt rejimida avtomatik tarzda yangilanib boradi.

Zarur hollarda hududiy statistika organlari KTYADRdagi korxonalar va tashkilotlarning faollik holatiga tegishli hududdagi ro'yxatdan o'tkazuvchi va soliq organlari bilan hamkorlikda aniqlik kiritadi. KTYADR bilan ro'yxatdan o'tkazuvchi va soliq organlari ma'lumot bazalari o'rtasida tafovutlar aniqlangan taqdirda ularni bartaraf etish choralarini ko'radi.

17. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlarni hamda xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari va filiallarini ro'yxatini yuritishda Statistika agentligi, Soliq qo'mitasi va Adliya vazirligi bilan uch tomonlama tasdiqlangan "Yuridik shaxslar, faoliyatini vakolatxona, filial yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari

va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning markaziy ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarni qayta ishlashda foydalaniladigan mulkchilik shakli klassifikatori"dan (keyin o'rinda – Mulkchilik shakli klassifikatori) foydalaniladi.

Mas'ul xodim har bir yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilish vaqtida Mulkchilik shakli klassifikatori asosida yuridik shaxsga tegishli kodni to'g'ri biriktirilganligini tekshiradi. Nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda Tizim orqali registratorga so'rov yuboradi.

18. Statistika agentligining tarmoq boshqarmalari statistika hisobotlari (kuzatuvlari) uchun zarur bo'lgan yuridik shaxslarni ro'yxatini shakllantirishda Statistik registrnlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasiga tegishli so'rovnoma orqali murojaat qiladi. So'rovnomada so'ralayotgan yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish shartlari, taqdim etish muddatlari ko'rsatiladi. Statistik registrnlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi tomonidan shakllantirilgan yuridik shaxslar katalogi Tizimga yoki lokal tarmoqdagi pochta manziliga joylashtiriladi.

Tarmoq boshqarmalari tomonidan ushbu ma'lumotlardan foydalanish jarayonida yuridik shaxslarning nomi, manzili, faollik holati, statistik kodlarning biriktirilishida noaniqlik va xatoliklarni aniqlagan taqdirda, bu haqda Statistik registrnlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasini yozma shaklda xabardor qiladi.

Statistik registrnlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi tegishli xabarnomani olgandan so'ng, noaniqlik va xatoliklarni o'rganib chiqadi, zarur hollarda ushbu ma'lumotlarni hududiy statistika boshqarmalariga tegishli ro'yxatdan o'tkazish organlari bilan birgalikda aniqlik kiritish uchun yuboradi.

Hududiy statistika boshqarmalari belgilangan muddatda ushbu ma'lumotlarga tegishli ro'yxatdan o'tkazish organlari bilan birgalikda aniqlik kiritib, Tizim orqali KTYADRda tegishli o'zgartirishlarni amalga oshiradi va bu haqida Statistik registrnlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasiga axborot kiritadi.

4-bob.

Yuridik shaxslar demografiyasi ko'rsatkichlari

19. Yuridik shaxslar demografiyasi quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning yagona davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan – ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, bankrot deb e'lon qilingan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan, harakatsiz holatda yoki ixtiyoriy tugatish jarayonida bo'lgan hamda yerni ijaraga olish shartnomasi bekor qilinganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Faoliyati tugatilgan – ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar tomonidan yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga yuridik shaxsni tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilganda so'ng bu haqda Statistika agentligiga ma'lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Yuridik shaxslarning yangi tashkil etilganlik darajasi – ma'lum bir davr oralig'ida tashkil etilgan yuridik shaxslarning jami faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Har mingta aholi soniga to'g'ri keladigan ro'yxatdan o'tgan (faoliyat ko'rsatayotgan) yuridik shaxslar soni - ma'lum bir sanadagi ro'yxatga olingan (faoliyat ko'rsatayotgan) yuridik shaxslar sonini, tegishli hududdagi jami aholi soniga nisbati.

5-bob.

Boshqa ma'lumot bazalari bilan solishtirish ishlarini amalga oshirish va KTYADR ma'lumotlarini tashqi foydalanuvchilarga taqdim etish

20. KTYADRni boshqa ma'lumot bazalari bilan solishtirish ishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

a) Statistika organlari tomonidan KTYADR ma'lumotlarining soliq organlari, davlat mulkini boshqarish organlari va boshqa davlat organlarining registrlari hamda axborot bazalari, shuningdek, statistika kuzatuvlarini amalga oshirishda olingan statistika ma'lumotlari bilan nomuvofiqligi aniqlanganda, ro'yxatdan o'tkazuvchi organga elektron shaklda yuridik shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarga aniqlik kiritish to'g'risida so'rovnoma yuboriladi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar, tegishli so'rovni olgandan keyin 10 kun mobaynida nomuvofiqlikni bartaraf etadilar, tegishli davlat reyestriga o'zgartirishlar kiritadilar hamda so'rovni yuborgan davlat statistika organiga elektron shaklda javob yuboradilar.

Statistika organi, ro'yxatdan o'tkazuvchi organning javobini olgandan keyin, bir ish kuni mobaynida KTYADRga o'zgartirish kiritadi.

b) Statistika agentligi va soliq organlarining axborot tizimlarini integratsiya qilish bo'yicha tuzilgan Texnologik yo'riqnoma tasdiqlangan bo'lib, mazkur Yo'riqnomaga asosan yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar o'zaro almashinadi.

21. Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning STIRini kiritib, yuridik shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni bepul olishlari mumkin.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida olish mumkin bo'lgan 16 turdagi ma'lumotlar davlat xizmatlari markazlari va O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali onlayn rejimda olish imkoniyati ham yaratilgan.

Korxonalar va tashkilotlarning
yagona davlat registrini yuritish
bo'yicha qo'llanmaga
ILOVA

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga

SO'ROVNOMA

Sizdan _____ ning quyidagi xodim(lar)iga
(hududiy statistika organi nomi)
mas'ul xodim sifatida Tizimga kirish huquqini berishingizni (bekor qilishingizni) so'rayman:

T/r	F.I.O.	Lavozimi	STIR	Elektron pochta (e-mail)	Telefon raqami (xalqaro formatda)

_____ boshlig'i: _____
(hududiy statistika organi nomi) (ERI) F.I.O.